



RIVOJLANISHIDA MUAMMOSI MAVJUD O‘QUVCHILARNING IJTIMOY-MAISHIY YO‘NALTIRISH DARSLARIGA QO‘YILADIGAN ASOSIY TALABLAR.

¹Maxmudova Madinaxon
Sobirxonovna
²Rahimjonova Sarvinov
Alisher qizi

¹Maxsus pedagogika kafedrası dotsenti
²Logopediya yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya

Maqolada ijtimoiy-maishiy yo‘naltirish darslariga asosiy talablar, ixtisoslashtirilgan yordamchi maktab, maktab-internatlar o‘quvchiga atrof-muhitda unga moslashishga yordam beradigan, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga, imkon boricha, mustaqil bo‘lishga imkon beradigan ta‘lim berishi kerakligi, bunday muassasalar o‘qituvchilari ishlarining o‘ziga xos xususiyati birinchi navbatda ta‘lim va tarbiyani yagona ilm olishga yordam beradigan darajada birlashtirishdan iborat bo‘lishi kerakligi aks etgan.

Kalit so‘zlar Aqli zaiflik, ijtimoiy-maishiy, dars, nogironlik, ixtisoslashtirilgan-maktab internat, ta‘lim mazmuni.

Aqli zaif o‘quvchilarni ijtimoiy-maishiy rivojlantirish masalalari yordamchi maktablarning o‘quv-tarbiyaviy jarayoniga “Ijtimoiy-maishiy hayotga yo‘naltirish” darslarini kiritish zaruriyatini keltirib chiqargan.

Aqli zaif o‘quvchilarni hayotga tayyorlashda ijtimoiy -maishiy hayotga tayyorlash darslari –bu aqli zaif o‘quvchilarni kattalar hayoti yo‘liga tayyorlashdagi dastlabki qadamlardir. Yoshlarda ular keyinchalik duch keladigan va hal etishi lozim bo‘lgan hayotiy vaziyatlarga qiziqishni rivojlantirish jamiyatga dastlabki muvaffaqiyatli integratsiya uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirmasdan amalga oshirib bo‘lmaydi.

Ixtisoslashtirilgan yordamchi maktab o‘quvchisini mustaqil hayotga, kelajakda oila qurishga, uy ro‘zg‘orini to‘g‘ri yuritishga, oila byudjetini to‘g‘ri rejalashtirishga tayyorlash –bu ijtimoiy- maishiy hayotga yo‘naltirish fani o‘qituvchisining bevosita vazifasidir.

Ijtimoiy-maishiy yo‘naltirish darslariga asosiy talablar. Ixtisoslashtirilgan yordamchi maktab, maktab-internatlar o‘quvchiga atrof- muhitda unga moslashishga yordam beradigan, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga, imkon boricha, mustaqil bo‘lishga imkon beradigan ta‘lim berishi kerak. Bunday muassasalar o‘qituvchilari ishlarining

o'ziga xos xususiyati birinchi navbatda ta'lim va tarbiyani yagona ilm olishga yordam beradigan darajada birlashtirishdan iborat bo'lishi kerak¹.

Ta'lim berish deganda quyidagilar tushuniladi:

1. Shaxsning bilim olishining bir butun (vujudga keltirish) yaxlit jarayoni.
2. O'quv yurtlarida ta'lim jarayonida yoki mustaqil ravishda har bir shaxsning egallagan sistemalashtirilgan bilim, mamaka va ko'nikmalarining majmui.

Bilim-tushunish, xotirada saqlash va asosiy faktlarni xuddi o'zidan, qanday bo'lsa, shunday aytib berish va undan kelib chiqadigan umumlashtirish, tushuncha, qoida, qonunlar, xulosalar v.b. malaka – amaliyotda o'zlashtirilgan bilimlarning usullari, harakatlarini qo'llab shug'ullanish. Ko'nikma-malakaning tarkibiy elementi, avtomatlashtirilgan harakat, yuqori darojadagi kamolotga erishish.

Boshlang'ich, asosiy, o'rta, oliy va umumiy va maxsus (professional, tuzatish), shuningdek, texnik, gumanitar, tabiiy, ilmiy ta'limni farqlaydilar.

Har bir shaxsning jamiyatning hayotiy faoliyatining turli sohasiga, uning mazkur jamiyatning madaniyatiga ishtirok ettirishga tayyorlash va o'z ichiga olish funksiyasini (vazifasini) ijtimoiy institut bajaradi. Ilm olish – har bir shaxsning ijtimoiy haq-huquqlari (statusi) ning ko'rsatkichlaridan biri va jamiyatning ijtimoiy tarkibining xuddi o'ziday, qanday bo'lsa, shundayligicha aytib berish va o'zgarish omillaridan biridir.

Ta'lim berish – mazmuni – ta'lim orqali o'rganiladigan jamoat tajribasi mazmuni va faoliyatning boshqa turlari bilan birga olib boriladigan usul va metodlarning mosini tanlash bilan tarbiyalashdir. Ta'lim mazmunining to'g'ri tanlanishi va uning eshittirishlarining ishonch bilan qo'llangan metodlari aqliy, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishni ta'minlaydi.²

Agar ta'limga pedagogika nuqtai nazaridan qaralsa, asosiy va o'ziga xoslik ta'lim jarayonining ikki tomonlama – o'qitish va o'rgatish jarayoni munosabatlari bo'lib chiqadi. O'qitmoq – kim o'rgatsa, o'sha faoliyat, ta'lim berish esa – kim o'rgansa, o'sha faoliyat. Bilish faoliyati ta'limdan tashqari, o'qituvchisiz amalga oshirilishi mumkin, modomiki shunday ekan, u ta'lim uchun o'ziga xos emas. Lekin o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan faoliyat – o'qitish va ta'lim berish faqat ta'lim berish jarayonida amalga oshiriladi. «O'qitish - o'rgatish» didaktik munosabatlari o'quvchilarning bilish faoliyati o'qituvchi tomonidan aniq maqsadga ega bo'lgan maxsus reja bo'yicha yo'naltirilgandagina yuzaga keladi. O'qitish va o'rgatish munosabatlari ta'limning pedagogik faoliyat tarzidagi o'ziga xos ijtimoiy mohiyatini belgilaydi. Ta'limning boshqa zarur tavsifi ta'lim va tarbiyaning birligi sababli o'qitish jarayonida faqat bilimlar o'zlashtirilib qolmay, balki ishonch, e'tiqod, axloqiy fazilatlar, xarakter xususiyatlar shakllanadi.

O'qitish (ta'lim berish) jarayonining quyidagi tarkibiy qismlari belgilanadi:

- aniq maqsadli;

¹ Гладкая В.В. Социально-бытовая подготовка воспитанников социальных (коррекционных) общеобразовательных учреждений VIII вида. – М., 2003.

² Воспитание и обучение детей во вспомогательной школе./Под ред. В.В. Воронковой. М.: Школа – Пресс, 1994.

- talablar, asoslar;
- sarmazmun;
- operatsion-faoliyatli;
- ta'sirchan-irodali;
- nazorat qilib boshqaradigan;
- baho qo'yish bilan bog'liq bo'lgan samaralilik.

O'qituvchining darsga tayyorlanishi. Ixtisoslashtirilgan yordamchi maktab, maktab –internatlarda darslar turli-tuman tarzda bo'lsa ham, o'qituvchi har bir darsning o'z maqsadi va mazmuniga, materialning hajmi va xarakteriga ko'ra hamma tipdagi darslar uchun umumiy bo'lgan asosiy talablardan kelib chiqishi kerak. Bu talablar quyidagi natijalardan iborat bo'ladi:

1. Har bir dars pedagog va o'quvchilar harakat qilib intilgan u yoki bu asosiy so'nggi natijalarga, tasavvur qilingan maqsadga ega bo'lishi kerak. O'qituvchi darsga tayyorlanish jarayonida eng avvalo uning maqsadini aniq tasavvur qilishi rejada yoki darsning konspektida uni to'g'ri shakllantirishi zarur. Har bir yagona maqsad beshta asosiy xususiyatlarga ega bo'lishi kerak:

- mazmunning mukammalligiga;
- kutilgan natijaning nazorat qilinishiga;
- vaqtli aniqlikka;
- asoslilikiga (o'quvchilar imkoniyatining mosligiga);
- biror ishga undash (shaxsning faoliyatidagi dalillarga mos ravishda).

2. Maqsadga erishish faqat mazkur darsga qo'yilgan vazifalarni aniq hal qilish bilan ta'minlanadi. Har bir o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishda o'zaro bir-biriga o'zviy bog'liq bo'lgan uchta asosiy guruh vazifalari amalga oshiriladi:

- o'qituvchi ilmni oshiradigan vazifalarni amalga oshirish uchun aqli zaif bolalarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilishda maxsus didaktik tamoyillarga asoslanishi zarur; o'quvchilarning bilim va malakalar bilan shug'ullanishida ularning o'kuv-bilish faoliyatini rag'batlantirishi va bu faoliyatning ruhiy-pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlashi kerak. Har bir dars o'zida mo'ayyan tematikadagi darslar-zanjirining umumiy qismini aks ettirishi kerak. Ijtimoiy-maishiy yo'nalishdagi darslarda olingan bilimlar ularning ilgari o'zlashtirgan tushunchalari bilan bog'lanib, unga asoslanishi zarur. Bu bilan yangi bilimlar o'zlashtirilishi bilan birga, o'tilgan materiallar ham mustahkamlanadi;

- korreksiyalash-rivojlantirishga oid vazifalaraqli zaif o'quvchilarning fikrlashini (xotira, diqqat-e'tibor, hissiy-irodaviy fazilatlar, mehnatga qobiliyatlilik) maqsadga yo'naltirilgan holda amalga oshirishni ko'zda tutadi. Har bir dars korreksiyalash, yaxshilashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak, kompensator mexanizmlarini harakatga keltirishga imkon berishi zarur. Buning uo'qituvchi ta'limning hamma bosqichlarida yaxshilash ishlarida rejalashtirish va yakkalik-yakka yondashuv ishlarini amalga oshirishda bolaning shaxsan rivojlanishi ko'ra bilishi kerak;

- tarbiyaviy vazifalar-shaxsning haqiqiy, ijobiy fazilatlarini, dunyoqarashini, axloqiy ishonch, badiiy madaniyatni shakllantirish maqsadi.

Bunda o'qituvchi o'quvchilarning faoliyatini turli tomondan tahlil qilishga erishish uchun, albatta, o'quvchilarning olgan bilimlarini kundalik hayotda, amalda qo'llay bilishlarini e'tiborga olishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shukhratovich, Makhmudov Khurshid. "Importance of didactic games in speech development of mentally retarded children." Asian Journal of Multidimensional Research 11.11 (2022): 20-23.
2. Shuxratovich, Maxmudov Xurshid. "Socio-Psychological Of Children With Speech Impairment Adaptation Features." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 243-248.
3. Махмудова, Мадинахон Махмудов Хуршид. "Нутқи тўлиқ ривожланмаган мактабгача ёшдаги болаларни ёзма нутққа тайёргарлигини шакллантириш муаммолари." Confrencea 4.04 (2023): 179-186.
4. Махмудова, Мадинахон Махмудов Хуршид. "Мактабгача тарбия ёшидаги болаларни ёзиш ва ўқиш кўникмаларини эгаллашга тайёрлаш." Confrencea 4.04 (2023): 187-192.
5. Shukhratovich, Makhmudov Khurshid, and Isodullayeva Iqboloy. "PHYSIOLOGICAL FOUNDATIONS OF SPEECH ACTIVITY." Open Access Repository 4.3 (2023): 765-771.
6. Shukhratovich, Makhmudov Khurshid, and Tahirova Mahliyo. "Ways To Increase The Vocabulary Of Mentally Retarded Children Of Preschool Age Based On Plot Role-Playing Games." International Journal of Early Childhood Special Education 15.2 (2023).
7. Shukhratovich, Makhmudov Khurshid. "IMPORTANT ASPECTS OF COLLABORATIVE ACTIVITIES IN THE PROCESS OF INCLUSIVE EDUCATION." (2023).
8. Shukhratovich, Makhmudov Khurshid, and Khomidova Shahribonu. "PEDAGOGICAL TASKS OF SPEECH THERAPIST AND PARENT COOPERATION IN ELIMINATING SPEECH DEFECTS." American Journal of Interdisciplinary Research and Development 16 (2023): 38-41.
9. Sobirkhonovna, Mahmudova Madinaxon. "Professional Training Of Future Speakers In The Period Of Independent Study." Archive of Conferences. Vol. 10. No. 1. 2020.
10. Maxmudova, Madinaxon, and Babayeva Azizabonu. "Ruhiy Rivojlanishi Sustlashgan Bolalar Lug'atining Psixik Rivojlanish Bilan Bog'liqligi." Conference Zone. 2022.
11. Kodirova, Feruzakhon Usmanovna, S. Z. Matupaeva, and Feruza Rakhimovna Teshaboeva. "Methodical cluster-an innovative mechanism to increase the efficiency of general secondary and inclusive education." (2020).
12. Mahmudova, Madina Sobirkhonovna. "The Role Of Independent Education In The Formation Of Professional Competencies Of Prospective Speech Therapists." Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology 2.10 (2020): 358-363.

13. Feruza, Teshabaeva, Mahmudova Madina, and Yuldasheva Dilbar. "The essence of inclusive education in developed countries." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol 8.1 (2020).
14. Sobirkhonovna, Mahmudova Madinahon. "An Innovative Mechanisms to Increase the Effectiveness of Independent Education of Future Defectologists." *International Journal on Integrated Education* 3.11 (2020): 210-211.
15. Maxmudova, Madinaxon, and Axmedova Vaziraxon. "Tayanch–Harakati A’zolari Falajlangan Bolalar Lug’atini Rivojlantirish Yo’llari." *Conference Zone*. 2022.
16. Махмудова, Мадинахон Махмудов Хуршид. "Мактабгача тарбия ёшидаги болаларни ёзиш ва ўқиш кўникмаларини эгаллашга тайёрлаш." *Confrencea* 4.04 (2023): 187-192.
17. Maxmudova, Madinaxon. "Technologies for the development of professional competencies of students of Higher Education." *INTERNATIONAL JOUR*
18. Maxmudova, M., and O. Zikirova. "Speech therapist and family collaboration in overcoming severe speech deficits." *European Scholar Journal* 2.10 (2021): 72-73.
19. Sobirxonovna, Maxmudova Madinaxon. "The genealogy of thoughts of the manifestations of ancient antiquity in the study of the speech deficit of dislaliya." *Confrencea* 3.03 (2023): 17-20.
20. Sobir Khanovna, Makhmudova Madinakhan, and Akhmedova Vazirakhan. "EFFECTIVE ORGANIZATION OF CORRECTIONAL-LOGOPEDIC WORK IN CHILDREN WITH CEREBRAL PALSY." *Open Access Repository* 4.3 (2023): 134-141.
21. Махмудова, Мадинахон Махмудов Хуршид. "Нутқи тўлиқ ривожланмаган мактабгача ёшдаги болаларни ёзма нутққа тайёргарлигини шакллантириш муаммолари." *Confrencea* 4.04 (2023): 179-186.
22. Sobirxonovna, Maxmudova Madinaxon. "GENEALOGY OF SCHOLARS AFTER THE 15TH CENTURY IN THE STUDY OF SPEECH DEFICIT." *Confrencea* 3.03 (2023): 21-25.
23. Sobirkhonovna, Makhmudova Madinakhan, and Goyipova Nodira. "Theoretical aspects of the development of academic mobility of future speech therapists in dual education." *Asian Journal of Multidimensional Research* 11.12 (2022): 148-154.
24. Sobirkhonovna, Mahmudova Madina. "THE IMPORTANCE OF THE USE OF PROJECT TECHNOLOGY IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF STUDENTS IN THE PROCESS OF INDEPENDENT LEARNING." *EURASIAN EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION* 29 (2020).
25. Sobirkhonovna, Mahmudova Madina. "DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF FUTURE SPEECH THERAPISTS IN THE PROCESS OF STUDYING INDEPENDENTLY." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* 8.8 (2020): 155-158.